Oraliq nazorat savollari - 1

1. Falsafani ōrganishning maqsad va vazifalarini tushuntiring?

2. Substansiya va substrat tushunchalarining mohiyati hamda ularning farqli tomonlarini ayting?

3. Qonun tushunchasi va Qonunlarning turlarini yoritib bering?

Javoblar:

1. Falsafa (yunoncha - donishlikni sevish", yunoncha - „seva man" va yunoncha - „donolik") - eng umumiy fan (nazariya), dunyoqarash

shakllaridan biri bo'lib inson faoliyat sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirish kerak (etika) qaysi narsalar mavjud va ularning tabiati qanday (metafizika); bilim nima (epistemologiya); hamda qanday fikrlash to'g'ri (mantiq) ekanligini hal qilishga urinadi.

2. Substansiya (lot. substantia - mohiyat) - narsa va hodisalarning mohiyatini, asosini ifodalovchi tushuncha. Odatda, materiya, modda so'zining sinonimi sifatida qo'llani

ladi. Falsafada xilma-xil olamning, obyektiv reallikning, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri tarixini, inson bilimlarining natijalarini ham ōziga qamrab oluvchi konkretlikning nazariy in'ikosi bilish nazariyasining asosiy tushunchasi sifatida talqin etiladi. Bunday universal mohiyat muayyan narsa, hodisalar va ularning ōzaro aloqadorliklari orqali namoyon bōladi.

3. Qonun (falsafa) - narsa va hodisalar ōrtasidagi muhim, zaruriy, barqaror, takrorlanuvchi munosabat. Mazkur munosabat obyektiv voqelikka mansub bōlsa, u voqelik Qonunlari deb yuritiladi. Voqelik Qonunlarining inson tomonidan ōrganilib, muayyan nazariy tilga kōchirilishi fan Qonunlari deyiladi. Shu jihatdan fan Qonunlari voqelik Qonunlarining tafakkurda inikos etilishidir.